



ZAMONAVIY O'QITUVCHINING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI TUZILMASI

Boymurodova Shoira Musirmonovna ¹

¹ Navoiy shahar 8-IATCHO'IT maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812865>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021
Ma'qullandi: 15-Dekabr 2021
Chop etildi: 20-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Zamonaviy o'qituvchi,
ta'lim, islohot,
modernizatsiya,
faoliyat, kompetentlik,
kasbiy kompetentlik,
Individual rivojlantirish
dasturi, pedagogning
individual rivojlanish
dasturi, o'z-o'zini
rivojlantirish,
pedagogning o'z ustida
ishlashi, pedagogning o'z
ustida ishlash bosqichlari,
o'z-o'zini baholash, hayot
davomida ta'lim olish.

ANNOTATSIYA

Zamonaviy o'qituvchi faoliyatining mazmuni. Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlari. Individual rivojlanish dasturi va uning tarkibiy elementlari Butun hayot davomida ta'lim olish g'oyasi (lifelong learning).

2021 yilning 25 yanvar kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror pedagog xodimlarning malakasini oshirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Qarorga muvofiq, endi o'qituvchilar malakasini oshirishda tabaqalashgan dasturlar asosida o'qitish tizimi joriy etiladi. Bunda xodimlar malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, psixologik tayyorgarligi, ish tajribasiga qarab tabaqalashgan holda o'qitiladi.

Xo'sh, xodimlar salohiyatini oshirishda bu tizim nima beradi? Malaka



oshirishda tabaqalishtirishning afzalligi shundaki, ish tajribasi va malakasi yuksak xodim bilan endigina sohaga kirib kelayotgan xodim bir dasturni tengma-teng o'zlashtirilmaligi mumkin. Tajribali xodim uchun ba'zi darslar zerikarli tuyulishi tabiiy. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, tabaqalashgan ta'lim tizimi xalq ta'limi muassasalari har bir xodimining malakasini oshirishda foyda beradi.

Shuningdek, an'anaviy malaka oshirish jarayonida kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy turlari ham joriy etiladi. Ya'ni, har bir xodim uchun amaliyot va nazariyani birgalikda olib borish, vaqtini, ta'bir joiz bo'lsa, naqdini tejash imkoniyatini yaratadi.

O'qituvchilarga malaka toifasini berish va saqlab qolish, ularni attestatsiyadan o'tkazish masalalari yil davomida amalga oshiriladi.

Ilgari xalq ta'limi muassasalari xodimlari 5 yilda bir marotaba malaka oshirgan bo'lsa, endi ular qarorda belgilangan talablarga ko'ra, uzluksiz tarzda malakasini oshirib boradi. Qolaversa, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali xodimlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tuziladi. O'qituvchilarning elektron portfoliyasi shakllantirilib, ularga kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, natijalari va o'zlashtirgan o'quv dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritib boriladi.

Malaka oshirish kurslari shakllarining xilma-xilligi uning samaradorligini to'la ta'minlash uchun yetarli bo'lmaydi, M.Jumaniyozova o'z tadqiqotlarida, kursning mazmuni muhim va u individual malaka oshirish dasturlari asosida tuzilishi

lozim, degan xulosaga keladi. Lekin individual malaka oshirish dasturini, asosan, kurslar oralig'ida o'qituvchini fan yo'nalishidagi zamonaviy bilimlar, pedagogika-psixologiya sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirib borishga yo'naltirilgan vosita sifatida qaraydi¹. Bizningcha, bu jarayon o'qituvchini o'z mavqeyi, vazifasi, burchini anglagan holda kasbiy rivojlanish strategiyasini nazarda tutishi, malaka oshirish kurslari, turli metodik tadbirlarda ishtiroki, o'zini takomillashtirishga qaratilgan barcha kasbiy harakatlarini qamrab olishi zarur.

Individual ta'lim yo'nalishi S.V.Vorobeva, N.A.Labunskaya, A.P.Tryapitsina kabi tadqiqotchilarning fikricha, ma'lum maqsadga yo'naltirib loyihalanadigan, tabaqalashtirilgan ta'lim dasturi bo'lib, o'quvchilarga tanlash imkoniyatini, o'z mavqeyini belgilashi, o'zini ro'yobga chiqarishida o'qituvchilar tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlanishi orqali ta'lim dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlaydi². Individual ta'lim yo'nalishi o'quvchining ishlab chiqilgan individual ta'lim dasturi asosida avvaldan o'zi belgilagan yo'li bo'lib, unda o'qitish hamda vaqt mezonlari, o'qish bosqichlari aniq ko'rsatiladi va murabbiyning pedagogik qo'llab-quvvatlashi orqali amalga oshiriladi³.

Tadqiqotlarda individual ta'lim trayektoriyasi "...har bir o'quvchining qobiliyati, salohiyati, motivatsiyasi, qiziqishlariga mos keluvchi o'ziga qarashli ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'quv faoliyati elementlarining ma'lum izchilligi



(ketma-ketligi)", "...ijtimoiy, madaniy tajribani ongli ravishda tushunish va qo'llashni talab qiluvchi yoshiga mos yoki mos bo'lmagan faoliyatni tanlash hamda mustaqil amalga oshirish⁴", "...variantiv o'qitish asosida ta'lim oluvchining tajribasi hamda shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish natijalari va jarayoni⁵", "...har bir o'quvchi o'quv faoliyati uslubining motivatsiyasi, o'qishi va pedagog bilan hamkorlikda amalga oshirishiga bog'liq holda namoyon bo'lishi⁶" sifatida qaraladi.

A.V.Xutorskoy individual ta'lim trayektoriyasini o'qitish jarayonida har bir o'quvchini shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning alohida o'ziga xos yo'li sifatida talqin qiladi hamda "...o'z ta'limining: mazmuni, maqsadi, vazifalari, sur'ati, o'qish shakli, metodlari, natijalarni baholash, nazorat tizimi kabi asosiy komponentlarini pedagog bilan o'zaro kelishilgan va anglangan holda tanlash" imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi⁷.

Ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar tomonidan ushbu tushunchalarni izohlashda yakdillik yetishmaydi va ular ayrim holatlarda sinonim, ba'zi hollarda esa ma'lum xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiluvchi kategoriyalar sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqotimiz davomida mazkur tushunchalar mohiyati va ularga yondashuvlarga oid ilmiy-metodik adabiyotlar mazmunining tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Individual ta'lim dasturi – pedagogning kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari tashxisi natijalari,

qiziqishlari, motivlari asosida mustaqil tuziladigan, shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan, uzluksiz malaka oshirishining turi va shakllarini maqbullashtirish imkonini beruvchi hamda mustaqil ta'limini nazarda tutuvchi dasturni ifoda etadi.

Individual ta'lim yo'nalishi – pedagogning individual ta'lim dasturini vaqt mezonlari va bosqichlariga bog'liq holda o'zlashtirish izchilligini maslahatchining kuzatuvida amalga oshirilishi hamda o'quv jarayonining mavjud sharoitlariga moslashuvchanligini belgilaydi.

Individual ta'lim trayektoriyasi – pedagogning ta'lim jarayonida shaxsiy salohiyatini amalga oshirishi, kasbiy takomillashuvi, o'z mavqeyini anglashi, o'zini namoyon qilishiga doir belgilangan, ongli va amaliy tajribalariga asoslangan o'ziga xos alohida harakat yo'li.

Demak, pedagogning kasbiy rivojlanishida o'z ta'lim faoliyatini loyihalashning bir-birini taqozo qiluvchi uchta darajasi ajratildi. Individual ta'lim trayektoriyasi individual ta'lim dasturi va yo'nalishining mavjudligini (mazmunni belgilash, rejalashtirish, tahlil) hamda uni amalga oshirishning puxta ishlangan usullarini, Ya'ni ta'lim jarayonini tashkil qilish texnologiyasini nazarda tutadi.

Malaka oshirish jarayonini individuallashtirish uni variantiv tashkil etishni ham taqozo etadi. Malaka oshirishning variantivligi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning bir aspekti sifatida tinglovchilarning individual ta'lim trayektoriyasini jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, tizimga qo'yiladigan talablar hamda shaxsiy qiziqishlari, kasbiy



qiyinchiliklari va ehtiyojlariga monand tanlash imkonini beradi.

A.G.Asmolovning fikricha "...ta'lim variativligi - shaxsning o'z-o'zini rivojlantiruvchi hayot yo'lini kompetentli tanlash salohiyatini kengaytirishga yo'naltirilgan jarayondir⁸". Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlar variativlikni ta'lim tizimining sifati tarzida qaraydilar. Ya'ni, variativlik tizimning o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlari, imkoniyatlari o'zgarishiga muvofiq tanlashi uchun ta'lim dasturlari variantlarini yoki xizmatning alohida turlarini yaratishga va taqdim etishga qodirligini xarakterlaydi⁹.

Malaka oshirish ta'lim muassasalari amaliy faoliyati, o'quv reja va dasturlarining tahlili hamda bir necha yillik kuzatishlar kurslarda asosiy e'tibor pedagog xodimlarning umumiy tayyorgarligi va kasbiy kompetentligining takomillashtirilishiga qaratilishini, barcha uchun bir xildagi usul, metodlarning qo'llanilayotganligini, ularning kasbiy xususiyatlari individualizmi, mahorat darajasi va ehtiyojlari yetarlicha inobatga olinmayotganligini ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan malaka oshirish tizimi oldida kechiktirmasdan hal etilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar turibdi. Ulardan biri pedagogni sust obyektidan faol, mustaqil, intiluvchan, raqobatbardosh, ya'ni o'z faoliyatidan ko'zlagan maqsad, vazifalarini tushunadigan, qanday va qay darajada kasbiy mahoratga ega bo'lishi lozimligi, imkoniyati hamda qobiliyatlarini biladigan subyektga aylantirishdir. Demak, pedagogni faol hayotiy, kasbiy pozitsiyasini shakllantirish, dunyoqarashini o'zgartirish, rivojlanishining individual ta'lim

trayektoriyasini tuzish orqali kompetentligini muntazam oshirishga yo'naltirish zarur bo'ladi.

Individual ta'lim trayektoriyasi malaka oshirish muhitining chegaralarini, imkoniyatlarini kengaytiradi, pedagoglarda motivlarning mustahkamlanishi, kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning qulay va samarali vositalarini tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, pedagoglarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari, shaxsiy motivlari, tajribasi, malaka darajasi va ijtimoiy imkoniyatlarini inobatga olishga xizmat qiladi.

Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini tuzish undan kasbiy ehtiyojlari miqdorini anglash, baholay olish, loyihalash va rivojlanish nuqtalarini oldindan ko'ra olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi.


A.Ibragimov tadqiqoti davomida tinglovchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari pedagoglar individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va amalga oshirishga ijobiy qarashlari hamda unga ehtiyojlari borligini ko'rsatdi. "Siz individual ta'lim trayektoriyasini tuzish orqali malaka oshirishni samarali deb hisoblaysizmi?", degan savolga qatnashchilarning ko'pchiligi ijobiy javob bergan bo'lsalar-da, ularning 69 foizidan ortig'i mustaqil ravishda individual ta'lim trayektoriyalarini tuza olmasliklarini belgilaganlar. Bu esa pedagoglarning malaka oshirish shakli, usullari, vositalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasliklarini hamda individual ta'lim trayektoriyasini tuzish jarayoniga ilmiy-metodik kuzatuvni uyushtirish lozimligini



tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda bu jarayonda malaka oshirish ta'lim muassasasi o'qituvchilari, metodistlar, tegishli malakaga ega mutaxassislar va pedagogning yaqin o'zaro ta'siri aohida ahamiyat kasb etadi¹⁰.

Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini tuzilmiy jihatdan mazmunga doir, korreksion-tahliliy va tashkiliy komponentlarga ajratish mumkin (1.3-rasm).

nazarda tutadi. Bu modullar pedagogning individual ta'lim dasturida o'z aksini topadi.



Individual ta'lim trayektoriyasining *mazmunga doir komponenti* malaka oshirish mazmunini belgilaydi. Uning tayanch (invariant) qismi Davlat talablarida belgilangan, ta'lim-tarbiya sifati va pedagogning kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan modullarni o'zlashtirishni, variativ qismi esa kasbiy ehtiyojlar tashxisi natijalari hamda shaxsiy qiziqishlarga ko'ra tanlov asosida belgilanadigan modullarni o'zlashtirishni

Korreksion-tahliliy komponent pedagogning kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari tashxisi, faoliyati davomida doimiy monitoring, o'z-o'zini tahlil va ularning natijalariga ko'ra individual ta'lim trayektoriyasiga o'zgartirishlar kiritishni ifodalaydi, shuningdek, tashkiliy komponentni moslashtirishga yo'naltiriladi. Shu o'rinda pedagogga individual ta'lim dasturini tuzish va yo'nalishini belgilashda ilmiy-metodik kuzatuv amalga oshiriladi. Chunki individual ta'lim trayektoriyasini



loyihalash hamda amalga oshirish jarayonida MOI o'qituvchisi va metodistlarning funksional vazifalari o'zgarib, o'zaro ta'sir funksiyasi maslahatchi, tahlilchi, tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchiga aylanadi.

Tashkiliy komponent belgilangan o'quv mazmunini o'zlashtirishning metodik va texnologik usullari yig'indisini, pedagogning ta'lim faoliyati shakli, metodlari, vositalari hamda qo'llab-quvvatlovchi omillar kabi metodik tizimni ifodalaydi.

Individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashda pedagog va maslahatchi hamkorlikda ishlashlari hamda quyidagilarni inobatga olishlari lozim bo'ladi:

- pedagogning umumiy kasbiy tayyorgarligi, ish tajribasi, kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari;
- kasbiy va ijtimoiy faoliyati holati;
- psixologik xususiyatlari (temperamenti, xarakteri, emotsionalligi va b.), kommunikativ xususiyatlari;
- kasbiy, ijtimoiy, bilish motivlarining shakllanganligi va turg'unligi;
- optimal qarorlar qabul qila olishi, o'zi uchun eng qulay hamda samarali shakl va usullarni tanlay olishi
- refleksiyasi, faoliyati mazmuni, ehtiyojlarini anglashi va b.

Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini tuzish algoritmining tashxis, maqsadni aniqlashtirish, mazmunni shakllantirish, yo'nalishni belgilash, amalga oshirish, tahlil va refleksiv baholash bosqichlaridan iborat bo'lishi uning mantiqiy zanjiridagi

izchilligi, uzluksizligi hamda tugallanganligini bildiradi (1.4-rasm).

Tashxis. Birinchi bosqichda pedagogning boshlang'ich holati, Ya'ni ayni vaqtdagi kasbiy mahorati darajasi, kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari, qiziqishlari, subyektiv pozitsiyasi, intellektual-ijodiy faoliyatining individual uslubi va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Buning uchun kompleks kasbiy tashxis o'tkaziladi. Tashxis anketa, test, suhbat metodlaridan foydalanib, maslahatchi bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Shu o'rinda, alohida ta'kidlash lozimki, pedagogning o'z-o'zini tashxislash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholay olish tajribasi hamda shaxsiy salohiyati, kasbiy ehtiyojlari, imkoniyatlari chegarasini anglashi va turg'un motivga ega bo'lishi juda ham muhim. Chunki, pedagog o'zini kasbiy anglashi orqaligina faoliyatidan ko'zlangan maqsad hamda vazifalariga erishish vektorini ko'ra olishi mumkin. Quyidapedagoglar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlarini kompleks tashxislash xaritasidan namuna keltiramiz:

Maqsadni aniqlashtirish. Mazkur bosqichda o'tkazilgan tashxis natijalariga ko'ra malaka oshirish maqsadi (malaka oshirish maqsadining individual tanlovi) va kutiladigan natijalar belgilanadi. Maqsadni belgilashda nafaqat pedagogning kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari, balki tashqi talablar (davlat va jamiyat buyurtmasi, ta'lim muassasasi ehtiyojlari, ota-onalar, o'quvchilar takliflari) mutanosibli ham inobatga olinadi.

Mazmunni shakllantirish. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasi mazmunini loyihalashda mavjud resurslar moslashtiriladi. Avval o'quv rejalarining invariant qismi, ya'ni o'zlashtirilishi lozim bo'lgan (tayanch)



modullar bilan tanishtiriladi, keyin esa maslahatchi bilan birgalikda dasturning variativ qismi shakllantiriladi. Bu qism malaka oshirish o'quv rejalarining variativ modullari, turli metodik tadbirlarda ishtiroki, loyihalar tayyorlash (yoki ilg'or tajribasini) va tatbiq qilish, mustaqil ta'lim hamda pedagogik faoliyatiga doir boshqa ishlardan iborat bo'lishi mumkin. Loyihalangan mazmun qo'yilgan maqsadga erishish uchun egallanadigan kompetensiyalarni to'liq qamrab olishi zarur.

Dasturning metodistlar, pedagogning mutaxassisligiga mos bo'lgan kafedra o'qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqilishi zaruriy taomil bo'lib, unda invariant modullar soni va soatlari miqdori aniq ko'rsatiladi hamda ixtiyoriy miqdordagi variativ modullar belgilanadi.

Yo'nalishni belgilash. Bu bosqichda pedagogning malaka oshirish ta'lim ishtirokchilari bilan o'zaro ta'sir mexanizmi va harakat yo'nalishlari belgilanadi. Unda pedagog maslahatchi bilan hamkorlikda malaka oshirish shakllarini (an'anaviy yoki masofiy kurslar, harakatdagi o'quv mashg'ulotlari, ustoz-shogird tizimi, stajirovka, bilvosita malaka oshirish, mahorat maktabi, turli metodik tadbirlar va b.), vaqt mezonlari, hisobot, tahlil hamda nazorat turlarini belgilaydi. Individual ta'lim yo'nalishi ta'lim muassasasi rahbari tasdig'idan o'tkazilib, tegishli kelishuvlar asosida me'yoriy jihatdan mustahkamlanganidan so'ng uni amalga oshirish jarayoni boshlanadi.

Amalga oshirish. Belgilangan individual ta'lim yo'nalishi maslahatchining ilmiy-metodik kuzatuvda va shaxsiy tajribalariga tayangan holda amalga

oshiriladi. Bu bosqich juda murakkab bo'lib, pedagogning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda sabotliligi va mas'uliyatni zimmasiga ola bilishini belgilaydi. Pedagogning mahorati individual faoliyatini maqsadli tashkillashtirish, samarali amalga oshirish vositalarini qidirish, harakatlarini tahlil qilish mezonlarini belgilashi, tahriray va baholay olishi hamda aniq muddatlar bilan ishlash ko'nikmasida ko'rinadi. Zarur hollarda maslahatchi bilan birgalikda qo'shimcha mutaxassislar jalb qilinadi yoki maslahatlashiladi.

Jarayonda individual ta'lim trayektoriyasi uning maqsadi, mazmuni, amalga oshirish strategiyalari va taktikasi tahriri natijasida o'zgarishi mumkin. Yo'nalish davomida pedagog malaka oshirish shakllari (masalan, an'anaviydan masofaviyga yoki teskarisi), tanlangan variativ modullar (masalan, qaysidir modullardan voz kechish yoki boshqasini tanlash) va belgilangan vaqtni o'zgartirishi mumkin.

Tahlil va refleksiv baholash. Bu bosqich yakuniy bo'lib, unda jarayondagi faoliyatning ta'limiy mahsulotlari namoyon qilinadi, natijalar tahlil qilinadi va qo'yilgan maqsadga solishtiriladi. Refleksiya individual suhbat, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'zaro baholash va nazorat, o'zgarishlarni taqqoslash hamda refleksiv esse shakllarida tashkil etiladi.

Shunday qilib, kasbiy rivojlanish individual ta'lim trayektoriyasi pedagogga o'z kompetentliligini takomillashtirishga faol intilish, tezkor refleksiv rostdash, ilmiy-metodik kuzatuv asosida kasbiy, shaxsiy individualligini ko'rsatish va isbotlash, qadriyatli-anglangan dunyoqarashi,



e'tiqodini yuksaltirish, ilg'or tajribalarini namoyon qilish, ommalashtirish hamda alohida o'ziga xos bo'lgan professionalizmini o'stirishga sharoit yaratadi. Quyida pedagogning kasbiy rivojlanish individual ta'lim trayektoriyasini tuzish shaklidan namuna keltiramiz:

Pedagogning kasbiy rivojlanish individual ta'lim trayektoriyasini tuzish shakli

Pedagogning kasbiy rivojlanish individual ta'lim trayektoriyasini tuzish algoritmi quyidagi bosqichlarni nazarda tutadi:

- kasbiy qiyinchiliklar va ehtiyojlar tashxisi (boshlang'ich holat);
- malaka oshirish maqsadi va kutiladigan natijalarni belgilash;
- malaka oshirish mazmunini shakllantirish;
- malaka oshirish ta'limi ishtirokchilari bilan o'zaro ta'sir mexanizmi va harakat yo'nalishlarini belgilash;
- belgilangan yo'nalishni amalga oshirish;

- natijalar tahlili va reflektiv baholash.

1. Titul varag'i.

Ta'lim muassasasining nomi.

Pedagogning familiyasi, ismi, sharifi.

Tasdiqlangan yil, shahar.

2. Individual ta'lim trayektoriyasini tuzish maqsadi.

Strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlar.

Yaqin muddatga mo'ljallangan rejalar.

Kutiladigan natijalar.

3. Tushuntirish xati.

Axborot-ma'lumotnoma:

- umumiy ma'lumot;
- joriy holat bo'yicha tahliliy ma'lumot;
- zaruriy resurslar;
- amalga oshirish muddati;
- amalga oshirilgan ishlar hisoboti shakli.

4. Individual ta'lim trayektoriyasi jadvali.

No	Amalga oshiriladigan ishlar yo'nalishi	Bajariladigan tadbirlar va harakatlar	O'tkazish muddati	Pedagogning ishtirok etish shakli	Natijalarni taqdim qilish shakli	Natijalar tahlili va ularni taqdim qilish joyi	Bajariishi haqida belgi

Individual ta'lim trayektoriyasi jadvalini tuzish bo'yicha metodik tavsiyalar.

Amalga oshiriladigan ishlar yo'nalishlari o'tkazilgan diagnostika va reflektiv tahlillar natijasiga ko'ra aniqlangan kasbiy qiyinchiliklar va ehtiyojlar asosida belgilanadi:

- umumpedagogik (zamonaviy ta'lim texnologiyalari, maqbul metodik usullar, pedagogik vositalar pedagogik tashxis texnologiyalari, psixologik-pedagogik korreksiya, monitoring va refleksiyaning baholash texnologiyalari,



axborot manbalari bilan ishlashga doir bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish);

- ilmiy-nazariy (o'qitadigan fanini nazariy asoslari, o'qitish metodlari, fan taraqqiyoti tarixi va erishilayotgan muvaffaqiyatlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tajriba-sinov maydonchalari, ilmiy adabiyotlar bilan ishlashga doir bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish);

- metodik (o'quv fani doirasida o'qitishni tashkil qilish shakllari hamda vositalarini, o'quvchilarni o'qitish metodlari va usullarini bilishi hamda ulardan samarali foydalanish darajasini oshirish);

- psixologik-pedagogik (o'qitish, tarbiyalash va o'quvchilarni barkamol voyaga yetkazishning psixologik qonuniyatlari, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, Shuningdek, pedagogika va psixologiyaning nazariy asoslariga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish);

- kommunikativ (insonlar bilan o'zaro ta'sir strategiyasi, taktikasi va texnikasini ishlab chiqish, aniq maqsadga erishishda ular bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish, o'z nuqtayi nazarini asoslash va ishontirish, muammoli vaziyatlarda tashabbus ko'rsatish hamda adekvat va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, kasbiy diskussiyalar va muhokamalarda ishtirok etish ko'nikmalarini takomillashtirish);

- shaxsiy qiziqishlari (shaxsiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirish, Ya'ni pedagogik imijini takomillashtirish, idealini yaratish, nutq madaniyati, liderlik sifatlarini oshirish).

Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashda faoliyatining quyidagi yo'nalishlariga (tadbirlar va harakatlar) asosiy e'tiborni qaratamiz:

- malaka oshirish kurslaridan o'tishi;

- mustaqil ta'lim olishi;

- turli tadbirlar va metodik ishlardagi ishtiroki;

- ta'lim muassasasi va pedagogik uyushmalardagi faoliyati.

O'tkazish muddati. Har bir amalga oshiriladigan ishlar va tadbirlarning aniq muddatlari ko'rsatiladi. Barcha tadbirlarning belgilangan muddatlarda bajarilishi pedagogning shaxsiy mas'uliyatiga asoslanadi va jarayonning natijadorligini ifodalaydi.

Pedagogning jarayonda ishtirok etish shakli. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini amalga oshirishda rejalashtirilgan tadbirlar va taomillar quyidagi shakllarda bajarilishi mumkin:

- malaka oshirish kurslari;

- qisqa muddatli kurslar;

- mahorat maktabi;

- harakatdagi o'quv mashg'ulotlari;

- vebinarlar;

- uslubiy birlashmadagi faoliyat;

- mutaxassislikka oid turli adabiyotlar muhokamasi;

- konferensiya va seminarlarda ishtirok etish;

- attestatsiya jarayoniga tayyorgalik;

- ustama olish uchun amalga oshiriladigan taomillar;

- ilg'or tajribalarni ommalashtirish va mahorat darslari o'tkazish;

- ilmiy jurnallar va OAVlarida nashr ishlari;

- ustoz-shogird an'analari bo'yicha faoliyat;



- tajriba maydonchalaridagi tadqiqot ishlariga qatnashish va h.k.

Natijalarni taqdim qilish shakli.

Faoliyat natijasida erishilishi kutiladigan natijalar turli shakllarda, jumladan, portfolio, metodik mahsulotlar, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, mahorat darsi, ijodiy hisobot, nashr ishlari, o'quv loyihalari, innovatsion faoliyat natijalari haqida hisobot, konkurslar, ma'lum bir muammo yuzasidan ijobiy tajriba taqdimoti va boshqa shakllarda taqdim etilishi avvaldan belgilanadi.

Natijalar tahlili va ularni taqdim qilish joyi. Faoliyat yakunida erishilgan natijalar tahlil qilinadi va qo'yilgan maqsadga solishtiriladi. Refleksiya individual suhbat, o'z-o'zini baholash va tahlil qilish, o'zaro baholash va nazorat, o'zgarishlarni taqqoslash, refleksiv esse shakllarida tashkil etiladi. Shuningdek, natijalarni taqdim qilish joyi ham belgilanadi va ular malaka oshirish kurslari, metodik birlashmalar, metodik va pedagogik kengash, seminar va konferensiyalar, mahorat dastlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Bajarilishi haqida belgi. Individual ta'lim trayektoriyasida ko'rsatilgan har bir tadbir va taomillar bajarilishi haqida tegishli belgi qo'yib borilishi juda muhimdir, chunki ularning to'liq bajarilishi orqaligini jarayon sifatining ta'minlanishiga va qo'yilgan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini amalga oshirish muddati 1 yildan 5 yilgacha qilib belgilanishi mumkin. Bunda belgilangan maqsad, qo'yilgan vazifalar ko'lami, malaka oshirish davriyligi, kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari

va boshqa pedagogik vaziyatlar inobatga olinadi.

Tadqiqot davomida individual ta'lim trayektoriyasini rejalashtirishda Gant diagrammasidan foydalanildi. *Gant diagrammasi* – ustunchalar ko'rinishidagi diagramma (gistogramma)larning keng tarqalgan shakli bo'lib, biror bir loyiha rejasi yoki ish grafigini yaqqol tasvirlashda foydalaniladi. Loyihalarni rejalashtirish metodi sifatida qilinadigan ishlar ro'yxati, topshiriqlar va harakatlarning vaqt mezonlarini, bajarilish ketma-ketligini ifodalaydi. Loyihalarni boshqarishda bosqichlar, vazifalar, harakatlarni aks ettirishning standart tarkibiy qismi va muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashda unga ilmiy-metodik kuzatuvni tashkil qilish, maslahatchi va tegishli mutaxassislar bilan faol o'zaro ta'sirni vujudga keltirish, kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan metodik tadbirlar (an'anaviy, masofaviy kurslar rejasi, metodik tuzilmalar tadbirlari, harakatdagi o'quv mashg'ulotlari, virtual pedagogik uyushmalar, konferentsiya, forum, seminar va b.) haqida aniq manzilli ma'lumotlar etkazish lozim bo'ladi.

3-reja. Individual rivojlanish dasturi va uning tarkibiy elementlari. Butun hayot davomida ta'lim olish g'oyasi (lifelong learning).

Hayotingizda umrbod o'rganishni qanday qabul qilish kerak?

1. O'z shaxsiy manfaatlaringiz va maqsadlaringizni tan oling.



Umrbod o'rganish – bu siz uchun boshqa odamlar istagan narsani o'qish yoki o'rganish emas, balki shxsiyatni rivojlantirish, hayotdagi o'rningizni aniqlashdir. Siz ishtiyoqli odamsiz, o'z qarashlaringizda, o'ylaringizda kelajagingizni ongli tafakkur qiling va siz nimani o'z kelajagingiz uchun tasavvur etdingiz. Agar sizning shaxsiy qiziqishingiz martabangizni ko'tarish bo'lsa, shubhasiz, bu maqsadga erishish uchun to'xtamay o'rganish va o'qish zarur, karyerangizni rivojlantirish darkor.

2. Nimani, albatta, o'rganishni yoki nimaga ega bo'lishni istayotganingizning ro'yxatini qiling.

Sizning ichki ovozingiz nimaga undaydi, nimani erishishni xohlaysiz, nega siz uchun bu kerakli ekaniga alohida qiziqish yoki maqsad qo'yib oling.

Misol uchun, tarixga qiziquvchi kishi, shunchaki Yevropa tarixi haqida bilimlarini kengaytirish uchun tarix faniga asoslangan kitoblarni o'qigan bo'lishi mumkin. Yoki boshqa odamning qiziqishi esa faqat Ph.Dni olish bo'lib, tarix fani unga vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, qaysi tomon kuchli nima deb o'ylaysiz.

Bu har ikki holat o'rganishning turli yo'llarini, sabab, qiziqishning turli darajalari mavjudligini ko'rsatib beradi.

3. O'z maqsadingizga yetishish uchun kerak bo'ladigan resurslarni aniqlab oling va ularni qanday qo'lga kiritishni ham o'ylang.

Shaxsiy maqsadlarga erishish qanday qilib uni amalga oshirish bilan boshlanadi.

Tarix fani misolida: muayyan tarixiy davr haqida ko'proq bilishni istagan kishi kutubxona katalogida, bloglarda, jurnallarda va podkastlarda mavzuga bag'ishlangan kitoblarni, hatto muzey va

muzokaralarni tinimsiz o'rganishi va o'zi uchun kashf etishi mumkin.

Shaxsiy maqsad sifatida onlayn rejimda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan universitet dasturlarini, shuningdek, doktorlik darajasiga erishish uchun kerak bo'lgan qadamlarni tadqiq qilishi mumkin.

4. Hayotingiz uchun ta'lim maqsadini yarating.

Sizning kundalik tashvishlar bilan band bo'lgan hayotingizga yangi o'quv maqsadni kiritish, uni ko'rib chiqish, vaqt va harakat talab qiladi. Agar buning uchun vaqt hamda muayyan joy ajratmasangiz, maqsadingizga yeta olmaysiz.

Bunday holat sizni osonlik bilan tushkunlikka olib kelishi yoki o'quv tashabbusini butunlay tark etishga majbur qilishi mumkin.

Yangi o'quv tashabbusi talablari hayotingizga mos bo'lishi uchun, qanday amalga oshirish rejasini tuzish yoki nima qilish kerakligini o'ylang. Masalan, yangi til o'rganish o'quv maqsadida bo'lsangiz, kuniga bir soat vaqt ajrata olasizmi? Yoki 15 daqiqa?

5. Majburiyatni his qiling

Yangi o'quv tashabbusi bilan shug'ullanishga qaror qabul qilish uchun boshlang'ich qadam, eng muhim qadamdir. Tinimsiz o'qib buni qanday boshlashni o'rganib oling. O'zingizni moslashib, odatlanib, qolipga tushib qolgan hayot tarziningizdan chiqishga majburlang.

Umrboqiy ta'lim namunalari

Bu yerda siz shug'ullanishingiz mumkin bo'lgan umrbod ta'lim tashabbuslarining ayrim turlarini keltirib o'tamiz:



- Yangi malakani rivojlantirish (masalan, tikuvchilik, pazandachilik, dasturlash, notiqlik va boshqalar).
- * O'z-o'zini o'rgatadigan o'qish (masalan, yangi tilni o'rganish, gazetalarga obuna bo'lish va boshqalar).
- Yangi sport yoki jismoniy faoliyatni o'rganish (masalan, jang san'atiga qo'shilish, chang'i o'rganish, mashq qilishni o'rganish va boshqalar).
- Yangi texnologiyadan foydalanishni o'rganish (aqli qurilmalar, yangi dasturiy ilovalar va boshqalar).
- Yangi bilimlarni olish (onlayn ta'lim yoki sinfga asoslangan kurs orqali o'z-o'zini qiziqtirgan kursni olish).

Umrbod o'rganishning foydali jihatlari

Hayotingizda faqat umrbod ta'lim bera oladigan ko'p uzoq muddatli harakatlarning foydali jihatlari quyidagilar:

1. Yangidan yangi motivatsiyalar uyg'onadi.
Sizni ilhomlantiradigan narsalarni aniqlash sizni haydovchining joyiga qo'yadi va siz hayotda xohlagan narsalarni qilishingiz mumkinligini eslatib turadi.
2. Shaxsiy manfaat va maqsadlaringizga erishasiz.
Inson zerikishni kamaytiradi, hayotni yanada qiziqarli qiladi va hatto kelajakdagi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Agar siz ularga e'tibor qaratmasangiz, qiziqishlaringiz sizni qayerga olib borishini hech qachon bilmaysiz.

3. Boshqa shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarni takomillashtira olasiz.

Biz yangi mahoratni o'rganish yoki yangi bilim olish bilan band bo'lsak-da, shaxsiy va professional hayotimizda bizga yordam beradigan boshqa qimmatli ko'nikmalarni qurmoqdamiz.

Buning sababi shundaki, biz yangi narsalarni o'rganish uchun o'zimizda yangi ko'nikmalarni shakllantirishimizga va ulardan foydalanishimizga to'g'ri keladi. Misol uchun, chizishni o'rganish ijodkorlikni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Buning natijasida malakani rivojlantirish jarayoni yuz beradi, bu esa interpersonal ko'nikmalar, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, yetakchilikni aks ettirish, moslashuvchanlik va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

4. O'z-o'ziga takomillashgan ishonchni beradi.

Biror narsada bilimdon yoki malakali bo'lish bizning shaxsiy va professional hayotimizga bo'lgan ishonchimizni oshirishi mumkin.

- Bizning shaxsiy hayotimizda bu ishonch bizni o'rganish va takomillashtirish uchun vaqt va kuch sarflash va ehtiyojni qondirishdan kelib chiqishi mumkin.

- * Bizning professional hayotimizda ishonch – bu o'zimizga, bilimimizga bo'lgan ishonch hissi va o'rganganlarimizni qo'llash qobiliyati bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Andrey Viktorovich Isaev, Lyudmila Aleksandrovna Isaeva and Alla Grigorievna Kravets. Individualized Educational Trajectory: Educational Courses Integration. World Applied Sciences Journal 24 (Information Technologies in Modern Industry, Education & Society): P. 62-67, 2013 ISSN 1818-4952 © IDOSI Publications.*



2. A.A.Ibragimov. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. –Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. - 80 bet.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.